



Dunyoning bugungi mafkuraviy manzarasi tahlili

Axmedova Zebo

zeboaxmedova24@gmail.com

Bazarova Dildora

bazarovadildora0645@gmail.com

Boysunov Abbos

boysunovabbosbek02@gmail.com

Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti

Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi yo'nalishi 3- kurs talabasi

Annotasiya: Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasiga nazar tashlansa, aksariyat ilg'or davlatlarda umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillarga asoslangan mafkuralar amal qilmoqda. Ularda tinchlik va taraqqiyot, inson va jamiyat kamolotiga xizmat qiladigan umuminsoniy g'oyalar ustuvordir. Shu bilan birga, inson ongida yangicha dunyoqarash va tafakkur tarzi shakllanayotgan hozirgi davrda muayyan kuchlarning mafkura maydonida hukmronlik qilishga, o'z ta'sir doirasini kengaytirishga qaratilgan intilishi kuchayib bormoqda. Tajovuzkor millatchilik va shovinizm, neofashizm va terrorizm, irqchilik va ekstremizm mafkuralari shular jumlasidandir.

Kalit so'zlar: Millatchilik, irqchilik, neofashizm, terrorizm, ekstremizm, shovinizm, konfessional totuvlik, panislomizm, panturkizm, panslavizm



Bugungi kunda aksariyat davlatlarning mafkurasi umuminsoniy qadryatlar va demokratik tamoyillarga asoslanadi. Ularda tinchlik va taraqqiyot, inson haq – huquqlari, va erkinligi, ijtimoiy, siyosiy, etnik, konfessional totuvlik va bag`rikenglik g`oyalar ustivordir. Shunday bo`lsada, insoniyat istiqbolini belgilashda unversallikka da`vogarlik qilayotgan va transmilliy xarakterga ega g`oyaviy qarashlar dunyoning mafkuraviy manzarasi mazmunini belgilab berishda ustivorlikka intilmoqda. Muayyan kuchlar va davlatlar tomonidan bo`ladigan siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy hukmronlik deb yoki millatlararo va davlatlararo mintaqaviy munosabatlarda unga intilish deb ta`riflash mumkin. Shovinizm ba`zi ko`p sonli millatlarning nafaqat ko`p millatli imperiya doirasida, balki uning o`rab turgan jug`rofiy- siyosiy makonda ham o`zining mutloq hukmronligini o`rnatish uchun kurashda namoyon bo`ladi.¹

Insonning XX asr oxiriga kelib bir qator chegara bilmaydigan muammolariga duch keldi. Urush va tinchlik, ekologik halokatlar, ma'naviy qashshoqlik, narkobiznes, terrorizm kabi muammolar ana shular jumlasidandir. Shu bilan birga, dunyoda globallashuv, axborot oqimining tezlashuvi va intensivlashuvi, universal texnologiyalar bilan bog'liq umumbashariy jarayonlar ham tobora chuqurlashib bormoqda. Butun Yer yuzi odam zot uchun yagona makon ekanligiga shubha yo'q, albatta. Ammo tarixda mavjud chegaralarni o'zgartirish, muayyan hududlarni bosib olish uchun son-sanoqsiz urushlar bo'lgani ma'lum. Bu jarayonda esa urush qurollari muntazam takomillashib borgan. Mazkur urushlar to XX asrgacha asosan ko'proq bir davlat ichida, ikki davlat o'rtasida yoki nari borganda bir mintaqada doirasida bo'lishi mumkin. To'g'ri, aytaylik, Aleksandr Makedonskiy, Chingizxonning ulkan davlat barpo etish yo'lidagi yoki o'rta asrlardan boshlab yevropalik

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish" masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi. 2019-yil 19-yanvar.



istilochilarning boshqa qit'alarni bosib olish uchun olib borgan urushlari ko'lami jihatdan ajralib turadi. Ammo bunday holatlar istisno hodisalar sifatida baholonmog'i kerak.

Inson ongi va qalbi uchun kurash yangi sifatli xususiyat kasb etgan bir davrda, e'tiqod umumiylikiga asoslanish (masalan, panislomizm), etnik birlikka urg'u berish (masalan, panslavizm, panturkizm) va yagona ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy makonda yashash natijasida yuzaga kelgan bog'liqlikni ro'kach qilish asosida (masalan, pansovetizm) yakka mafkuralar hukmronligini ta'minlash orqali jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo'lib olishga urinishlar kuzatilayotganini ta'kidlash zarur. Bundan tashqari, mafkuraviy tolerantlik insonlarning asriy an'analari, tili, dini, ma'naviyati va milliy rivojlanishiga xizmat qiluvchi umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi. Shuningdek, davlat idoralari, jamoat tashkilotlari va uyushmalari, madaniy-ma'rifiy muassasalar tomonidan amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tizimi mafkuraviy tolerantlikni ta'minlashning zaruriy shartidir. Mamlakatimiz mafkuraviy tolerantlikni ilmiy asoslangan ijtimoiy siyosatga, huquqiy madaniyatga, jamiyatning ma'naviy yetukligi va demokratiyalashuviga uzviy ravishda amalga oshiriladigan g'oyaviy tarbiyaga tayanadi. Jamiyat, davlat va shaxs mafkuraviy tolerantlikni ta'minlash – davlat siyosatining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ayni paytda hayot haqiqati shuni korsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda-ezgulik va yovuzlik yolda foydalanish mumkin. Agarki bashariyat tarixini, uning tafakkur rivojini tadrijiy ravishda ko'zdan kechiradigan bolsak, hayotda insonni kamolotga, yuksak marra'larga chorlaydigan ezgu goya va talimotlar bilan yovuz va zararli goyalar ortasida azaldan kurash mavjud bo'lib kelganini va bu kurash bugun ham davom etayotganini ko'ramiz.¹

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki bugungi XXI asr umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillar mafkurasiga tayangan asrdir. Bu asr nafaqat insonlar uchun balki davlatlar uchun ham eng muhim hisoblanib, 3 - renessansga tayyorlanuv desak ham mubolag'a bo'lmaydi.



¹Iom Karimov. Yuksak manaviyat- Yengilmas kuch. Toshkent. Ozbekiston. 2008-y. b-33

Shu jihatlarni inobatga olgan holda bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi yuqoridagi fikrlarga tayangan holda yaqqol ko‘rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. N.Sh. Alibekovich " Dunyoning bugungi mafkuraviy manzarasi" nutqidan.
2. Islom Karimov. Xavfsizlik va Barqaror taraqqiyot yolida. Toshkent. Ozbekiston 1998-yil
3. Najmiddin Musinov va Doniyor Kabirov " Dunyoning mafkuraviy manzarasi va uning yoshlarga ta’siri"
4. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi. Amangeldiyev Odil. GulDU talabasi
5. <https://oyina.uz>
6. <https://arxiv.uz>
7. <https://tuit.uz>